

“KELAJAK SOATI” — SENTABR OYI MASHG‘ULOT ISHLANMASI**Guruh ishi: “Yangi O‘zbekiston” kichik loyiha-taqdimoti****I. Texnologik xarita**

Ko‘rsatkich	Mazmuni
Davomiyligi	45 daqiqa
Mashg‘ulot turi	Amaliy-ijodiy mashg‘ulot (loyiha va taqdimot)
Metodlar	Kichik guruhlarda loyiha ishi, taqdimot
Jihozlar	Vatman/plakat qog‘ozlari, flomasterlar, oilaviy topshiriq varaqlari (2-haftadan), skotch

II. Maqsad va kutilayotgan natijalar

Ta’limiy: mustaqillik yillaridagi yutuqlarni sohalar (ta’lim, iqtisodiyot, madaniyat, texnologiya, ekologiya) bo‘yicha tizimlashtirish;

Tarbiyaviy: jamoada ishlash, umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilish;

Rivojlantiruvchi: ma’lumotni tanlash, tizimlashtirish va taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

III. Mashg‘ulotning borishi

Tashkiliy qism va guruhlariga bo‘linish - 5 daqiqa

O‘qituvchi: *Assalomu alaykum! O‘tgan hafta har biringiz o‘z oilangizdan qimmatli ma’lumotlar to‘plagansiz. Bugun esa shu ma’lumotlar asosida katta va qiziqarli loyiha - “Yangi O‘zbekiston” loyihasini tayyorlaymiz.*

Sinf 4–5 nafardan iborat guruhlariga bo‘lingan holda uyga berilgan vazifasining taqdimotini qiladi. (Viderolik, loyiha ishlanmasi, sahna ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar quyidagi aniq yo‘nalishlar asosida ishlaydilar.)

- 1-guruh: Ta’lim sohasidagi yangiliklar;
- 2-guruh: Iqtisodiyot va turmush darajasi;
- 3-guruh: Madaniyat va milliy qadriyatlar;
- 4-guruh: Raqamli texnologiyalar;
- 5-guruh: Ekologiya va obodonlashtirish.

“Millatimiz fidoyilari” rukni - 5 daqiqa

O‘qituvchi: *Bolalar, taqdimotdan oldin muhim bir mavzu haqida fikr yuritsak:*

Qayum Ramazon (1900–1938). Toshkentning “Kallaxona” mahallasida savdogar oilada tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta’limni jadid ma’rifatparvari Eshonxo‘ja Xoniyning “Xoniy” yangi usul maktabida, so‘ng Munavvarqori Abdurashidxonovning “Namuna” maktabida olgan. Ilmini oshirish uchun Istanbulga yo‘l olgan, biroq chegaradan o‘tolmay Bokudagi pedagogika

texnikumida til-adabiyot yo'nalishini tugatib, 1917-yilda Toshkentga qaytgan. 1919-yilda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" jamiyatiga qo'shilib, unga Fitrat tomonidan "O'ktam" taxallusi berilgan. U bir vaqtning o'zida maktablarda til-adabiyot ta'limini nazorat qiluvchi inspektor, "Qizil bayroq" va "Turkiston" gazetalarining muxbiri, yangi o'zbek alifbosi qo'mitasi a'zosi, shuningdek teatr sahnasida aktyor sifatida ham faoliyat yuritgan — Fitratning "Turon" teatridagi spektakllarida turli obrazlarni yaratgan. Ilmiy merosidan "Ona tili" (1918), "O'zbek tili saboqligi" (1925), "O'zbek tili imlo qoidalar" (1931), "Sarf" (1937) kabi darsliklar bizgacha yetib kelgan. 1937-yilda "millatchi" va "Milliy ittihad" a'zosi sifatida qamoqqa olinib, sud hukmi chiqarilishidan bir kun oldin — 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan.

Lutfulla Olimiy (1893–1969). Namanganda ziyoli oilada tug'ilgan, boshlang'ich savodni otasi Olimxondan olgan. Qo'qondagi yangi usul maktabida tahsil ko'rgach, 1914-yildan Namanganda o'zi maktab ochib muallimlik qila boshlagan, so'ng Ufodagi "Oliya" madrasasida o'qigan. "Namuna" va "Turon" maktablarida dars bergan, keyinchalik shahar maorif bo'limi va "Nashri maorif" jamiyatida rahbar lavozimlarda ishlagan, Qo'qonga ko'chib o'tib "Farg'ona" gazetasiga muharrirlik qilgan. U Gulxaniy ijodini ilk bor ilmiy o'rgangan tadqiqotchilardan biri bo'lib, 1928-yilda yangi alifbo Markaziy qo'mitasining 47 nafar a'zosidan biriga aylangan hamda Abdurauf Fitrat bilan birga Yusuf Xos Hojibning nodir "Qutadg'u bilig" asarining Namanganda topilgan nusxasini Toshkent kutubxonasiga topshirishda ishtirok etgan. 1930-yilda "Milliy ittihad" ishi bo'yicha qamoqqa olinib, 1931-yilda 18 kishi qatorida otishga hukm qilingan, keyinroq bu hukm 10 yillik qamoq bilan almashtirilgan. Ozodlikka chiqqach ham 1937 va 1949-yillarda yana ikki bor qatag'on qilingan va umrining oxirigacha uy ishlari bilan cheklanib qolgan.

O'qituvchi: Bolalar, ularning har biri ma'rifatimiz yo'lida butun umrini bag'ishlagan, ammo o'z davrida adolatsiz jazolarga uchragan. Ularning bu fidoyiligi bo'lmaganida, ehtimol, bugungi ta'limdagi taraqqiyotimiz ham bo'lmas edi. Mana shu ajdodlarimizning ibratidan kelib chiqib, endi har bir guruh o'ziga berilgan yo'nalish bo'yicha — ta'lim, iqtisodiyot, madaniyat, texnologiya yoki ekologiya sohasidagi yutuqlar haqida — oilangizdan yig'gan ma'lumotlar asosida plakatingizni tayyorlashni boshlang. Har bir loyihada aniq misollar, sanalar, raqamlar yoki rasmlardan foydalanishni unutmang.

Loyiha tayyorlash - 20 daqiqa

O'qituvchi guruhlar orasida yurib, kerakli maslahat va yo'naltiruvchi savollar beradi: Masalan: "Bu yerga yana qanday misol qo'shsa bo'ladi?", "Oila a'zolaringiz aytgan farq bilan bugungi holatni solishtiring-chi".

Metodik izoh: Loyiha ishi paytida o'qituvchi fasilitator rolini bajaradi — tayyor javob bermaydi, faqat yo'naltiradi, bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Taqdimotlar - 10 daqiqa

O'qituvchi: *Endi har bir guruh o'z loyihasini taqdim etadi. Taqdimot uchun 2 daqiqadan vaqt beriladi. Boshqa guruhlar diqqat bilan tinglaydi va istasa, bittadan savol berishi mumkin.*

Har bir guruh navbat bilan chiqib, o'z plakatini taqdim etadi. O'qituvchi har bir taqdimotdan so'ng qisqa ijobiy izoh beradi va asosiy fikrni umumlashtiradi.

IV. Biz uchun muhim! - 5 daqiqa

O'qituvchi: Bolalar, sizningcha, inson uchun eng katta boylik nima? Ko'pchilik pul, uy yoki qimmatbaho narsalarni o'ylashi mumkin. Aslida esa insonning eng katta boyligi bu —uning sog'lig'i. Chunki sog'lom bo'lsak, o'qishimiz, sport bilan shug'ullanishimiz, do'stlarimiz bilan vaqt o'tkazishimiz va orzularimizga erishishimiz osonroq bo'ladi. Sog'lom bo'lish uchun esa har kuni kichik, ammo foydali odatlarga amal qilish kerak. Vaqtida uxlash, foydali ovqatlanish, yetarli suv ichish, toza havoda sayr qilish va ko'proq harakat qilish shunday odatlardandir. Masalan, ertalabki badantarbiya kunni tetik boshlashga yordam beradi. Zinadan chiqish, piyoda yurish, velosiped haydash yoki futbol o'ynash ham tanamiz uchun foydali jismoniy faoliyat hisoblanadi. Harakat qilganimizda yuragimiz va mushaklarimiz chiniqadi, kayfiyatimiz ham ko'tariladi.

Ovqatlanishimizga ham e'tibor berishimiz kerak. Meva va sabzavotlar, sut mahsulotlari, donli mahsulotlar kabi foydali taomlar organizmimizga kerakli vitamin va energiyani beradi. Shirinliklar, chips va gazli ichimliklarni esa me'yorida iste'mol qilgan ma'qul. Yana bir muhim odat — yetarlicha uxlash. Uyqu vaqtida organizmimiz dam oladi va yangi kun uchun kuch to'playdi. Shuning uchun kechasi uzoq vaqt telefon o'ynash yoki televizor ko'rish o'rniga vaqtida uxlash foydaliroq. Tozalik ham sog'liq garovidir. Qo'llarni ovqatlanishdan oldin va keyin yuvish, tishlarni kuniga ikki marta tozalash, kiyim-kechak va atrofimizni ozoda saqlash ko'plab kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Eng muhimi, sog'lom turmush tarzi bir kunda shakllanmaydi. U har kuni takrorlanadigan kichik yaxshi odatlardan tashkil topadi. Shuning uchun bugundan boshlab o'zingizga savol bering: “Sog'lig'im uchun bugun qanday foydali ish qildim?” Esda tuting: sog'lom tana —faol aql, yaxshi kayfiyat va yorqin kelajak.

Yakunlash - 5 daqiqa

O'qituvchi: *Barcha guruhlarining ishlarini ko'rib, shuni ishonch bilan aytishim mumkinki — Yangi O'zbekiston chindan ham ko'plab sohalarda ulkan yutuqlarga erishmoqda va bu yutuqlar sizning oila a'zolaringiz mehnati va sabri bilan yaratilgan. Barcha plakatlarni sinf devoriga osib, bir hafta davomida saqlab qo'yamiz.*

Loyiha ishlari sinfga “Yutuqlar devori”ga osib qo'yiladi.

Uyga vazifa

Kelasi haftaga “Men uchun Vatan nima?” mavzusida (essegga tayyorgarlik).